Jo‘ra Teshaboyev “O‘zbek kinematografiyasiga qo‘shgan hissasi uchun” “Oltin Humo” maxsus mukofoti bilan taqdirlandi

Kuni kecha “Oltin Humo” milliy kinotaqdimoti bo‘lib o‘tdi. Undan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti “Kino san’ati va televideniye” bo‘limi bosh ilmiy xodimi, professor, san’atshunoslik fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, kinoshunoslik ilmining atoqli namoyandalaridan biri, milliy kino san’atimizning nazariy asoslarini keng ko‘lamda ilmiy tadqiq etishga asos solgan taniqli olim Teshaboyev Jo‘ra Teshaboyevich “O‘zbek kinematografiyasiga qo‘shgan hissasi uchun” “Oltin Humo” maxsus mukofoti bilan taqdirlandi.



Eslati o‘tamiz: Jo‘ra Teshaboyev 1933-yilning 16-martida Andijon shahrida tug‘ildi. Maktab taxsilidan so‘ng Kiyev Davlat Univesitetining xorijiy filologiya fakultetida ta’lim oldi. Bu yo‘l uni o‘zbek kino san’atining katta dargohiga olib keldi. Institutni tamomlagach yosh mutaxassis 1960-yilda “O‘zbekfilm” studiyasiga muxarrir sifatida ishga olinadi, bir oz muddatdan so‘ng u aspiranturaga kiradi. Nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini Rossiyaning nufuzli ilm dargohlarida himoya qiladi. 1972-78 yillar davomida “O‘zbekfilm” studiyasi Redaksion kollegiyasining bosh muxarriri sifatida bevosita kino amaliyotida faoliyat olib bordi.

Bugunga qadar olim o‘nlab yirik monografik tadqiqotlar, 600 dan ortiq ilmiy–tanqidiy maqolalar, badiiy lavhalar e’lon qildi, ko‘plab hujjatli filmlar uchun ssenariylar yaratdi. Kino asarlarini xalq va madaniyat tarixi bilan chambarchas aloqadorlikda gavdalantirish, milliy kinematograf manbalarini jahon kino san’ati taraqqiyoti tarixi bilan yagona munosabatda o‘rganishdan iborat yangi ilmiy yo‘nalishga asos solgan.

Tadqiqotlarida O‘zbekiston kino san’atida ijodiy yo‘nalishlar xususiyati, rejissura rivojidagi asosiy tamoyillar, teatr va kino san’atlariga xos o‘zaro ta’sirlanuv masalalariga oid xulosalar o‘z aksini topgan. Jumladan, “Komil Yormatov” (1964), “Asad Ismatov” (1968), “Shukur Burxonov” (1968), “Raxim Pirmuhamedov” (1970), “Geroy — krupnыm planom” (1972), “To‘g‘on Rejimetov” (1975), “Cherez prizmu poiskov” (1980) kitoblari, shuningdek, “Puti i poiski” (1973), “Uzbekskoye kino: traditsii i novatorstvo” (1979), “Kino Uzbekistana” (1981), “O‘zbek ekrani dahosi” (2022, nashrda) deb nomlangan monografiyalari milliy kino san’atimizni o‘rganish va targ‘ib etishda katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, J.Teshabov qator hujjatli va televizion filmlar uchun ssenariylar yozgan kengqirrali ijodkordir. Kinoshunos olim bugungi kunda milliy rejissura va aktyorlik maktablarining o‘ziga xos jihatlari tadqiqi ustida ish olib bormoqda.

Kino san’atining tolmas targ‘ibotchisi, o‘tkir tanqidchi, g‘amxo‘r murabbiy sifatida respublikada va qo‘shni davlatlardagi kinojamoatchilik orasida ulkan obro‘-e’tiborga erishgan. Ilmiy rahbarligida 8 ta fan nomzodi, 1 ta fan doktori, 30 dan ortiq magistrlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Hozirgi kunda Jo‘ra Teshaboyevning shogirdlari — san’atshunoslik fanlari doktori N.Karimova, san’atshunoslik fanlari nomzodi M Mirzamuhamedova, san’atshunoslik fanlari nomzodi O. Kapadze, falsafa doktori (PhD) Eldor Yuldashevlar milliy kino san’atimiz ravnaqi, uning keng targ‘iboti yo‘lida xizmat qilib kelmoqdalar.